

INGLIZ BADIY DISKURSIDA KOLLOKATSION BIRLIKLARNING LESIK KOGEZIYANI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI VA UNING KOGERENSIYAGA TA'SIRI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.18906816>

Saidova Muxayyo Umedilloevna

*Ingliz tilshunosligi kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

m.u.saidova@buxdu.uz

Sayfiyeva Madina Saydullo qizi

lingvistika (ingliz tili) mutaxassisligi 2-bosqich magistranti

sayfiyevamadina3@gmail.com

Annotatsiya

Ushbu maqolada ingliz badiiy diskursida kollokatsion birliklarning leksik kogeziyani shakllantirishdagi roli va kogerensiyaga ta'siri tahlil qilinadi. Tadqiqotda O. Henrining qisqa hikoyalari misol sifatida olinib, kollokatsion birliklar matndagi semantik uzviylikni, mavzuiy izchillikni va badiiy obrazlarni yaratishda qanday ishlatilishi ko'rsatildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, kollokatsiyalar matnning mantiqan izchil va diskursiv jihatdan kogerent bo'lishini ta'minlaydi.

Kalit so'zlar

Ingliz badiiy diskursi, kollokatsion birliklar, leksik kogeziya, kogerensiya, leksik birliklar, semantik uzviylik, matnning izchilligi, semantik bog'lanish, mavzuiy izchillik, so'z birikmalari, lingvistik tahlil.

Аннотация

В данной статье анализируется роль коллокационных единиц в формировании лексической когезии и их влияние на когерентность в английском художественном дискурсе. В качестве материала исследования используются короткие рассказы О. Генри. В работе показано, каким образом коллокации способствуют обеспечению семантической связности текста, тематической последовательности и созданию художественных образов. Результаты исследования свидетельствуют о том, что коллокации обеспечивают логическую последовательность и дискурсивную когерентность текста.

Ключевые слова

Английский художественный дискурс, коллокационные единицы, лексическая когезия, когерентность, лексические единицы, семантическая связность, последовательность текста, семантическая связь, тематическая последовательность, словосочетания, лингвистический анализ.

Annotation

This article analyzes the role of collocational units in forming lexical cohesion and their impact on coherence in English literary discourse. The short stories of O. Henry are used as the research material. The study demonstrates how collocations contribute to semantic continuity, thematic progression, and the creation of artistic imagery in the text. The findings indicate that collocations ensure logical consistency and discursive coherence of the text.

Keywords

English literary discourse, collocational units, lexical cohesion, coherence, lexical units, semantic continuity, textual consistency, semantic connection, thematic progression, word combinations, linguistic analysis.

Kirish. Badiiy matnlarni o'quvchi uchun tushunarli va izchil qilishda leksik kogeziya muhim vosita hisoblanadi. Kollokatsion birliklar barqaror so'z birikmalari bo'lib, ular matnda semantik uzviylik va mavzuiy bog'lanishni ta'minlaydi. Ingliz badiiy diskursida bu birliklar orqali muallif obraz, makon va voqealarni mantiqan tizimli ravishda ochib beradi. Leksik kogeziya til birliklarining leksik-ma'naviy yo'nalishda bir-biriga bog'lanishi, shuningdek, birikmalar va leksik naqshlar orqali matn bo'ylab ma'no uzluksizligini yaratish hisoblanadi.

Asosiy qism. So'z boyligi birliklarining gap darajasidan yuqori bo'lgan sathlarda o'rganilishiga qaratilgan muhim tadqiqotlardan biri M. Halliday and R. Hasan tomonidan ishlab chiqilgan leksik kogeziya tavsifidir. Ushbu yondashuvga ko'ra, o'zaro bog'liq leksik birliklar yozma matnlarda gap va jumla chegaralaridan tashqarida, og'zaki nutqda esa nutqiy akt, harakat (move) va replikalar (turn) doirasida yuzaga keladi hamda kogerent diskursning asosiy belgilaridan biri hisoblanadi. Kollokatsiyaning leksik kogeziya tushunchasiga to'liq mansubligi masalasi bahsli hisoblanadi, chunki kollokatsiya so'zlar o'rtasidagi semantik munosabatni emas, balki ularning birga qo'llanish ehtimolini ifodalaydi. Shu sababli ushbu tadqiqotda "leksik kogeziya" termini faqat so'zlarning to'g'ridan-to'g'ri takrorlanishi hamda muayyan asosiy semantik munosabatlar orqali matnning yaxlitligini ta'minlash jarayonini anglatadi. Shunga ko'ra,

gaplararo kollokatsion bog'lanishlar mazkur semantik munosabatlardan tashqarida qolgan hodisa sifatida e'tibordan chetda qoldiriladi.

M. Halliday va R. Hasan modeli doirasida leksik bog'lanish faqat formal takrorlash emas, balki sinonimiya, giponimiya kabi semantik munosabatlar orqali ham amalga oshishi isbotlanadi. Mualliflar kollokatsiyani semantik emas, ehtimollik xarakteridagi hodisa sifatida baholab, uni leksik kogeziya doirasidan qisman chiqarib tashlaydi. Bu yondashuv badiiy diskurs tahlilida semantik asoslangan kogeziya vositalarini aniqlash va ularning kogerensiyaga ta'sirini chuqurroq o'rganish uchun muhim nazariy poydevor yaratadi. Kollokatsiya bu til birliklarining birga ishlanishi natijasida yuzaga keladigan barqaror leksik birikmalar. Odatda bu birliklar semantik maydonda muayyan kontekstda birga uchraydi va o'zaro mustahkam bog'lanadi. T.E.Xulm va R.Montagyu kollokatsiyani shunday ta'riflaydi: "Collocation is the habitual co-occurrence of words in a language, forming a statistically verifiable tendency for certain lexical items to appear in proximity"⁸. Bu ta'rifdan ko'rinadiki, kollokatsion birliklar til ichidagi semantik naqshlar bo'lib, bir-biriga yaqin turgan leksik elementlarning statistik tendensiyasiga asoslanadi.

Kollokatsiyalar orqali so'zlar bir-biriga semantik hidoyat sifatida bog'lanadi. Badiiy matnda mazmun, tasvir va ifoda boyligi aynan shu barqaror ikki yoki undan ortiq birlik orqali yuzaga keladi. Masalan, "furnished room", "old red houses", "soft voice" kabi birliklar matnning vizual va semantik qatlamini shakllantiradi, o'quvchi ongida makon va ruhiyatni aniq tasvirlaydi. Leksik kogeziya orqali yaratilgan bog'lanishlar grammatika darajasidan yuqoriroq semantik va diskursiv qatlamni ochadi. Kollokatsion birliklar nafaqat so'zlarni bir-biriga yaqin tutadi, balki ularni kontekstual ma'nolar bilan boyitadi va badiiy obrazni shakllantiradi. O. Henrining "The Furnished Room" hikoyasidagi leksik naqshlarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, kollokatsion birliklar matnning semantik halqasini mustahkamlaydi, hodisa ketma-ketligini aniq anglashga yordam beradi va hikoyaviy kogerensiyani kuchaytiradi.

Ingliz badiiy diskursida leksik kogeziya kollokatsion birliklar vositasida ta'minlanadi. Ushbu leksik munosabat matn ichidagi semantik uzviylikni kuchaytirib, diskursiv kogerensiyani shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. "The Furnished Room" hikoyasida O. Henri aynan shu vositalar orqali muhit, ruhiy holat va mavzuni izchil ochib beradi. Kollokatsiya til birliklarining nutqda birgalikda tez-tez qo'llanishi orqali hosil bo'ladigan barqaror semantik

⁸ Hulme, C., & Montague, M. (1984). The effects of age of acquisition, frequency, and imagery on word recognition. *Quarterly Journal of Experimental Psychology*

bog'lanishdir. Kollokatsion birliklar matnning tabiiyligini oshiradi va o'quvchi uchun mazmunni mantiqan yaxlit qabul qilish imkonini beradi. Hikoyadan olingan quyidagi parchalarni misol sifatida ko'rishimiz mumkin: "They go from furnished room to furnished room."⁹ Bu kollokatsion birlik hikoyaning markaziy leksik yadrosini tashkil qiladi. "furnished room" birliklari doimiy qo'llanib, vaqtinchalik yashash, beqaror hayot tarzini ifodalaydi. Ushbu kollokatsiya matn davomida takrorlanib, leksik kogeziya va mavzuiy kogerensiyani ta'minlaydi. "Like time itself, are most of the people who live in these old red houses"¹⁰. "old" va "houses" so'zlari o'zaro tabiiy kollokatsion bog'lanishda kelib, eskilik va yemirilgan muhitni ifodalaydi. Bu birlik hikoyaning umumiy fonini belgilab, makon tasvirining izchilligini ta'minlaydi. "Her voice was soft, but for some reason he did not like it."¹¹ Bu kollokatsiya personaj xarakterini ochishda muhim. "voice" bilan "soft" va "thick" sifatlarining birgalikda kelishi ayol obrazining yoqimsiz va sirli tomonini kuchaytiradi. Natijada semantik bog'lanish orqali psixologik kogerensiya yuzaga keladi. "The air was bad; no flowers could have lived in it for long."¹² Bu yerda "air" so'zi bilan "bad" sifatining kollokatsion bog'lanishi nafaqat jismoniy, balki ramziy ma'noda ham muhitning og'irligini bildiradi. Bu birlik oldingi va keyingi makon tasvirlari bilan leksik jihatdan bog'lanib, diskursiv yaxlitlikni ta'minlaydi. "There was a bed and there were two chairs with ragged covers."¹³ Bu kollokatsion birlik xonadagi eskirgan buyumlarni ifodalaydi, "ragged" sifati "covers" bilan birikib, umumiy nochorlik kayfiyatini mustahkamlaydi va matnning emotsional kogerensiyasiga xizmat qiladi.

O. Henrining "The Gift of the Magi" asaridagi kollokatsiyalar g'oyalar orasida aloqalar o'rnatadi. "Prized possession", "last penny", "precious gift" kabi iboralar juftlikning fidoyiligini va moliyaviy qiyinchiliklarini yoritadi. Ushbu kollokatsiyalar hikoyaning mavzuiy markaziga mos keladi va muvofiqlikni ta'minlaydi. "...She had had many happy hours planning something nice for him. Something nearly good. Something almost worth the honor of belonging to Jim..."¹⁴. Ushbu parcha umumiy so'zlar ("thing", "something") yordamida keng ma'noli tushunchalarni birlashtiradi. Deliyaning sochini sotish haqidagi fikrlari shu kabi umumiy so'zlar orqali bir-biriga bog'lanadi va hikoya yo'nalishidagi o'zgarishga qaramay uzluksizlik saqlanadi.

⁹ O. Henry. (2005). "The Gift of the Magi and other stories" ("The Furnished Room") p. 19

¹⁰ O. Henry. (2005). "The Gift of the Magi and other stories" ("The Furnished Room") p. 19

¹¹ O. Henry. (2005). "The Gift of the Magi and other stories" ("The Furnished Room") p. 20

¹² O. Henry. (2005). "The Gift of the Magi and other stories" ("The Furnished Room") p. 20

¹³ O. Henry. (2005). "The Gift of the Magi and other stories" ("The Furnished Room") p. 21

¹⁴ O. Henry. (2005). "The Gift of the Magi and other stories" (p.2)

Tahlil shuni ko'rsatadiki, O. Henrining "The Furnished Room" hikoyasida kollokatsion birliklar leksik kogeziyaning asosiy vositalari sifatida faol ishlatilgan. Kollokatsiyalar matnning tabiiyligini, tasviriy aniqligini va emotsional boyligini ta'minlaydi. Ushbu vositalar orqali leksik birliklar o'zaro bog'lanib, diskursiv kogerensiya yuzaga keladi. Natijada matn semantik jihatdan yaxlit, mantiqan izchil va badiiy ta'sirchan bo'lib shakllanadi. O. Henrining qisqa hikoyalari o'zining kutilmagan yakunlari, mavzulari va hikoyaning struktura jihatdan mukammalligi bilan mashhur. U o'zining asarlarida kogeziya va kogerensiya vositalarini samarali tarzda ishlatib, har bir hikoyada izchillikni, chuqur mazmunni va dramatik ta'sirni yaratadi. Hikoyalarining qisqa va aniq bo'lishi, o'quvchiga tezda ta'sir ko'rsatish imkonini beradi, shu bilan birga, matnning o'zaro bog'lanishini va to'liqligini ta'minlaydi.

O. Henrining "The Last Leaf" hikoyasida kogeziya va kogerensiya matnning ruhini yaratishda muhim rol o'ynaydi. Hikoya kasal bo'lgan Jonsi ismli yosh ayol va uning do'sti Sue o'rtasidagi munosabatlarni tasvirleydi. Jonsi hayotini saqlab qolish uchun o'zining ruhiy kuchiga tayanadi, va u o'zining kasalligi haqida qaror chiqarishga ta'sir ko'rsatadi¹⁵. Hikoyaning yakunida Berman ismli rassomning Jonsi uchun oxirgi bargni chizishi kutilmagan va dramatik ta'sirga ega. O'quvchi boshlanishida hikoyaning mazmuniy rivojlanishini anglab, yakunida esa bu kutilmagan hodisa orqali o'zgarishlarni sezadi. Kogerensiya yordamida, hikoyadagi barcha voqealar va qahramonlar o'rtasidagi aloqalar mantiqiy va mazmunli izchillikka ega bo'ladi. O. Henrining "The Last Leaf" hikoyasidagi kutilmagan yakunlar, bu vositalar yordamida izchillik va dramatik ta'sirga ega bo'lib, o'quvchini hayratda qoldiradi. Har bir hikoyaning tuzilishidagi izchillik va mantiqiy bog'lanish, nafaqat hikoya syujetining rivojlanishida, balki personajlarning ruhiy o'zgarishlarida ham o'zini namoyon qiladi.

"After Twenty Years" hikoyasida kogeziyaning turli shakllari uchraydi. Jumladan, leksik kogeziya matndagi so'z birikmalari va sinonimik qatorlar orqali bog'lanishni ta'minlaydi. Masalan, hikoyada "friend", "old friend", "best friend", "brother" kabi so'zlar takrorlanib, qahramonlar o'rtasidagi do'stlik aloqalarini mustahkamlaydi. Shuningdek, "West" va "New York" kabi geografik nomlarning takrorlanishi qahramonlarning hayot yo'llari qanday ajralganini va voqealar rivojining muhim nuqtalarini ta'kidlaydi.

Xulosa. Kollokatsion birliklar orqali matnda so'zlarning odatiy va tabiiy birikishlari yuzaga keladi. Bu esa o'quvchi uchun diskursni idrok etishni

¹⁵ O. Henry. (1906). "The Best Short Stories of O. Henry". Doubleday

yengillashtiradi va matnning tabiiyligini ta'minlaydi. Ingliz badiiy diskursida, xususan, O. Henri asarlarida kollokatsiyalar voqea rivoji, muhit tavsifi va qahramonlarning ruhiy holatini ifodalashda muhim stilistik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Kollokatsiyalar orqali matnda takrorlanib keluvchi semantik maydonlar shakllanadi va shu asosda leksik kogeziya mustahkamlanadi. Ingliz badiiy matnlarida kollokatsion birliklar leksik kogeziyaning asosiy vositasi sifatida ishlatiladi. Ular matndagi semantik bog'lanish va mavzuiy izchillikni mustahkamlaydi, shuningdek, badiiy obrazlarni aniq ifodalaydi. Shu orqali matn diskursiv jihatdan kogerent bo'lib, o'quvchi uchun mantiqan izchil va tushunarli bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Halliday, M.A.K., & Hasan, R. (1976). "Cohesion in English". London: Longman.
2. Brown, G., & Yule, G. (1983). "Discourse Analysis". Cambridge: Cambridge University Press.
3. Flowerdew, John. (2013). Discourse in English language education. London: Routledge.
4. McCarthy, Michael. (1991). Discourse Analysis for Language Teachers. United Kingdom: Cambridge University Press.
5. Lyons, J. (1977). Semantics (Vol. 1-2). Cambridge: Cambridge University Press.
6. Geeraerts, D. (2010). Theories of Lexical Semantics. Oxford: Oxford University Press.
7. Winston, M. E., Chaffin, R., & Herrmann, D. (1987). A taxonomy of part-whole relations. Cognitive Science.
8. Henry. O. (2005). "The Gift of the Magi and other stories".